



TIL VA MADANIYAT BOG'LIQLIGI

Zaripova Shaxnoza Shaxobiddinovna

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti

“Ingliz tili ” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritiladi. Til inson tafakkuri, qadriyatlari va urf-odatlarini ifoda etuvchi asosiy vosita sifatida madaniyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Muallif turli xalqlar tili va madaniyati misolida tilning milliy o'ziga xoslikni saqlash va rivojlantirishdagi rolini tahlil qiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida til va madaniyatning o'zaro ta'siri, hamda ularni asrash zarurati muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, til madaniyat aloqasi, milliy o'zlik, an'ana, madaniy meros, o'zaro tushunish, lingvistik xilma-xillik, tarixiy tadqiqot.*

Annotation: *This article explores the intrinsic connection between language and culture. Language is highlighted as a key tool for expressing human thought, values, and traditions, thus playing a crucial role in shaping cultural identity. The author analyzes how language helps preserve and develop national uniqueness, using examples from various nations. The article also discusses the mutual influence of language and culture in the context of globalization, emphasizing the importance of their preservation.*

Keywords: *Culture, Language and culture connection, national identity, tradition, cultural heritage, mutual understanding, linguistic diversity, historical development.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается неразрывная связь между языком и культурой. Язык выступает основным средством выражения человеческого мышления, ценностей и традиций, играя важную роль в формировании культурной идентичности. Автор анализирует роль языка в сохранении и развитии национальной самобытности на примерах различных народов. Также обсуждается влияние глобализации на язык и культуру, а также необходимость их сохранения.*

Ключевые слова: *Культура, Связь языка и культуры, Традиции, Культурное наследие, Языковое разнообразие, Социальная идентичность, Обучение языкам, Взаимодействие, Историческое развитие.*

Kirish. Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari va tarixiy merosi mavjud. Ushbu boyliklarni asrash, rivojlantirish va avlodlarga yetkazish asosan til orqali amalga oshiriladi. Til insoniyat taraqqiyotining asosiy vositasi bo'lib, u nafaqat aloqa,



balki madaniyatni ifodalash, uni tushunish va tarqatishning muhim manbai hisoblanadi. Shuning uchun, til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardir.

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviylik. Til – bu jamiyatning ruhiy qiyofasini aks ettiruvchi oynadir desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir tilda o'sha xalqning dunyoqarashi, tafakkuri, turmush tarzi, e'tiqodi, qadriyatlari mujassam bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi "mehmondo'stlik", "or-nomus", "qadrdonlik" kabi so'zlar bevosita xalqimizning urf-odatlarini va axloqiy mezonlari bilan bog'liq.

Boshqa tomondan, madaniyat ham til orqali ifodalanadi. O'zbek xalq maqollari, ertaklari, qo'shiqlari va adabiy merosi til orqali avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda. Demak, agar biror xalq o'z tilini yo'qotsa, u o'z madaniyatidan ham ayrilishi mumkin. Shuning uchun ham tilni saqlash – bu madaniyatni saqlash demakdir.

Til o'rganishning afzalliklari. Bugungi globallashtirish davrida bir nechta tilni bilish insonning dunyoqarashini kengaytiradi, turli xalqlarning madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Chet tilini o'rganish faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki boshqa xalqlar hayot tarzini, qadriyatlarini, fikrlash uslubini anglash vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Masalan, ingliz tilini o'rgangan inson faqatgina xorijiy adabiyot yoki filmlarni asl nusxasida o'qish yoki ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmay, balki anglosakson madaniyatining o'ziga xos tomonlarini ham tushuna boshlaydi. Bu esa insonning dunyoqarashini boyitadi, unga bag'rikenglik va tushunishga asoslangan yondashuvni shakllantiradi. Shuningdek, til o'rganish ilmiy izlanishlar, biznes aloqalar, sayohat va turizm, ta'lim olish kabi ko'plab sohalarida katta ustunliklar yaratadi. Ko'p tilli insonlar zamonaviy mehnat bozorida ham yuqori baholanadi.

Til madaniyatni saqlash va rivojlantirish vositasi sifatida. Til nafaqat madaniyatni saqlab qoladi, balki uni rivojlantiradi ham. Har bir yangi asar, she'r, maqola yoki film til orqali milliy madaniyatga qo'shiladigan yangi hissa bo'ladi. Shu sababli, tilshunoslik, tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik kabi sohalarining rivoji – madaniyatimizni yuksaltirishning muhim omillaridandir. Bugungi kunda o'zbek tilida yangi ilmiy, badiiy, publitsistik asarlar yozilmoqda, xorijiy tillardan ko'plab asarlar tarjima qilinmoqda. Bu esa o'zbek tilining imkoniyatlarini kengaytiradi, uni zamon bilan hamnafas holga keltiradi va yosh avlodga tilga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Xulosa sifatida shuni ayta olamanki, Til va madaniyat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Til – madaniyatning yuragi, uning asosi va asosiy ifoda vositasidir. Har bir inson, ayniqsa yoshlar o'z tilini sevib, uni o'rganib, asrab-avaylashi kerak. Shu bilan birga, boshqa tillarni o'rganish ham nafaqat shaxsiy, balki madaniy o'sishga xizmat qiladi. Chunki til bilgan odam – madaniyatli odam. Har bir xalqning o'ziga xosligini saqlab qolish, uni boshqa xalqlarga tanitish va kelajak avlodlarga yetkazish aynan til orqali amalga oshadi.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kramsch, C. (1998). *Language and Culture*. Oxford: Oxford University Press.
2. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures through Their Key Words*. Oxford: Oxford University Press.
3. Гумбольдт, В. фон (1999). *О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества*. Москва: Прогресс
4. Стернин, И.А. (2010). “Культурная специфика языкового сознания”. // *Вопросы лингвокультурологии*, №1
5. Karimov, I.A. (1995). *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
6. Rasulov, M. (2020). “Til va madaniyat o'zaro ta'siri: lingvistik yondashuv”. // *Filologiya masalalari*, №2, 45–52-betlar.
7. O'zbekiston Respublikasi “Davlat tili to'g'risida”gi Qonuni. (1989, yangilangan 2020).